



## SOME REFLECTIONS ON THE TOURISM POTENTIAL OF THE HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE SITES OF THE FERGANA VALLEY

**Bunyodbek Talabjonov**  
 Doctoral Student  
 Fergana State University  
[talabjonovb@gamil.com](mailto:talabjonovb@gamil.com)  
 Fergana, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** cultural heritage, tourism, Fergana Valley, archaeological monuments, sustainable development.

**Received:** 24.11.25

**Accepted:** 25.11.25

**Published:** 26.11.25

**Abstract:** The article analyzes the tourism potential of historical and cultural heritage sites located in the Fergana Valley. It discusses the impact of archaeological, architectural, and intangible heritage on the regional tourism development, as well as issues of preservation and sustainable use. The findings contribute to defining the scientific and practical directions for developing cultural tourism based on the historical heritage of Fergana Valley cities.

## FARG'ONA VODIYSI TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZM SALOHİYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Bunyodbek Talabjonov**  
 Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti  
[talabjonovb@gamil.com](mailto:talabjonovb@gamil.com)  
 Farg'ona, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** madaniy meros, turizm, Farg'ona vodiysi, arxeologik yodgorliklar, barqaror rivojlanish.

**Annotatsiya:** Maqolada Farg'ona vodiysi hududida joylashgan tarixiy-madaniy meros obyektlarining turizm salohiyati tahlil qilingan. Unda arxeologik, me'moriy va nomoddiy madaniy meros turlarining mintaqaviy turizm rivojiga ta'siri, shuningdek, ularni muhofaza qilish va barqaror foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi shaharlarining tarixiy merosi asosida madaniy turizmni rivojlantirishning

ilmiy va amaliy yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

## НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ТУРИСТИЧЕСКОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ОБЪЕКТОВ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

**Бунёдбек Талабжонов**

Докторант

Ферганского государственного университета

[talabjonovb@gmail.com](mailto:talabjonovb@gmail.com)

Фергана, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** культурное наследие, туризм, Ферганская долина, археологические памятники, устойчивое развитие.

**Аннотация:** В статье анализируется туристический потенциал историко-культурного наследия Ферганской долины. Рассматриваются влияние археологических, архитектурных и нематериальных видов наследия на развитие регионального туризма, а также вопросы их сохранения и устойчивого использования. Результаты исследования способствуют определению научных и практических направлений развития культурного туризма на основе исторического наследия городов Ферганской долины.

**Kirish.** Farg'ona vodiysi katta hududni qamrab olib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududining 4 foizini, Qirg'iziston Respublikasining 26,7 foizini hamda Tojikiston Respublikasining 4 foizini tashkil etadi.[8:80] Tadqiqot obyekti sifatida ushbu hududning O'zbekiston Respublikasiga tegishli qismi ko'rib chiqiladi. Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri bo'lib, tarixiy jarayonlarda muhim geostrategik, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida shakllangan. Vodiyning o'ziga xos tabiiy-iqlimiy sharoitlari, unumdor yerlar, daryo havzalari va qadimiy karvon yo'llariga yaqinligi bu hududni qadimdan insoniyat sivilizatsiyasi uchun qulay yashash va taraqqiyot makoniga aylantirgan. Tarixiy manbalarda vodiyning "Dovon", "Parkana", "Ferghana" kabi nomlar bilan tilga olinishi bu hududda qadimiy davlat tuzilmalar va sivilizatsiyalarning shakllanganini ko'rsatadi.[2:263] Qadimiy hududda moddiy manba sifatida tarixni anglashga yordam beruvchi madaniy-meros obyektlari ham salmoqli miqdorda mavjud. Moddiy madaniy meros vositasida xalq o'zining tarixiy xotirasini, madaniy identitetini va milliy o'zligini anglaydi.[5:31] Ularning saqlanishi va muhofaza qilinishi katta ahamiyatga ega. Chunonchi, ularning yaxshi saqlanishi tarixga boy o'tmishimizni anglashga yordam bersa, ushbu manzillarga sayyohlar jalb qilish orqali

iqtisodiy foydaga ham ega bo'lish mumkin. Farg'ona vodiysida aholi zichligining yuqoriligi hamda qadimdan o'troq hayot kechirilishi sayyohlarni jalb qilishning bir necha turlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Xususan, arxeologik turizm, ziyorat turizm, tarixiy va arxitekturaviy obidalar, agroturizm, biznes turizm, etnografik turizm, tibbiy turizm, gastronomik turizm kabi yo'nalishlarda rivojlanishi uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Yuqorida keltilgan turizm turlari ichida madaniy-meros obyektlariga qaratilgan turizm yo'nalishi eng katta masshtablisidir. Farg'ona vodiysi viloyatlari kesimida madaniy meros obyektlarining turizm salohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, Andijon viloyatida arxeologik turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha obyektlar mavjud. Mingtepa va Eylaton arxeologiya yodgorliklari ko'plab xorijlik sayyohlar e'tiborini tortmoqda. Shuningdek, Andijon shahrining Eski shahar qismidagi Sarbontepa, Kultepa, Jalaquduq tumanida joylashgan Dalvarzintepa Buloqboshi tumanidagi Toshtepa va Sho'rabashot kabi qadimiy shahar qoldiqlari viloyat turistik salohiyatining jozibadorligini yanada oshiradi. Birgina Andijon shahrining o'zida Mirpo'stin-ota maqbarasi, Ganchtepa, Devonboy masjidi, Duvoxon masjidi, Jome majmuasi, Ahmadbek xoji mehmonxonasi, Uyg'ur masjidi, Xo'ja Naib ota mozori kabi tarixiy-memoriy obidalar nimahalliy va xalqaro turistlarga tanishtirish mumkin. Biroq bu arxitektura yodgorliklari Andijon shahrida ma'lum joyda kompleks tarzda joylashmagan. Namangan viloyati ham tarixiy madaniy yodgorliklarning ko'pligi bilan turistik makonga aylantirish imkoniyati yuqori. Xususan, viloyatda qadimgi shahar va istehkomlar qoldiqlari – Axsikent, Munchoqtepa, Balandtepa, Mug'tepa va boshqa arxeologiya yodgorliklari qadimgi davr tarixiga qiziquvchi nafaqat mamlakat ichidagi sayyohlarni, balki butun dunyo bo'ylab turistlarni o'ziga jalb eta oladi.[1:14] Madaniy meros obyektlarining o'rta asrlar va yangi davrga oid yodgorliklariga Jome' masjidi, Chodak madrasa-masjidi, Shayx Ishoq Eshon , Ota Valixon to'ra, Haqquloboq masjidllari, Yusupxon Eshon, Mavlono Lutfullo Chustiy me'moray majmuasi, G'oyib Nazar, Mulla qirg'iz madrasalari, Xo'ja Amin, Boy Hamadoniy kabi obyektlarni qo'shishimiz mumkin, Umumiy jihatdan olinganda vodiya 10 ga yaqin shahar tipidagi yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lib, 2018-yildan boshlab "Samoviy otlar diyoriga sayohat" nomli "Sariqo'rg'on-Quva –Asaka-Marhamat-Axsikent-Munchoqtepa yo'nalishida tematik mashrut tashkil etildi.

Shu o'rinda Farg'ona vodiysida nomoddiy madaniy meros obyektlarining ham o'ziga xos uslub va yo'nalishlarini ham ta'kidlab o'tish kerak. Marg'ilon shahri — qadimdan ipakchilik va mato to'qish hunari bilan mashhur. Bu yerda tayyorlanadigan atlas va adras matolari o'zining yorqin ranglari, nafis tuzilishi va milliy naqshlari bilan ajralib turadi. Atlas mato asosan ipakdan, adras esa ipak va paxta aralashmasidan tayyorlanadi. To'qish jarayoni "ikat" texnologiyasiga asoslangan bo'lib, u turli ranglar bilan iplarni bo'yab, maxsus to'qimachilik dastgohlarida bajariladi. YuNeSKO o'zbek shoyi matolari – atlas va adrasni tayyorlash qadimiy texnologiyasini Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajriba ro'yxatiga kiritdi. Nomoddiy

madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita atlas va adrasni tayyorlash Marg'ilon texnologiyasini yuqoridagi ro'yxatga kiritish qarorini qabul qildi. Atlas hamda adras ishlab chiqarishning tarixiy maskani sifatida tanilgan Marg'ilonda, qadimiy an'analarni saqlab qolish va qayta tiklash uchun 2007-yilda "Hunarmandchilikni rivojlantirish markazi" ochildi.

Rishton — O'zbekiston kulolchilik maktabining markazlaridan biri. Bu hududda ishlab chiqariladigan kulolchilik buyumlari o'ziga xos ko'k-yashil rangdagi sirlangan naqshlari bilan mashhur. Qadim zamonlardan beri bu yerda bir necha avlodlik hunarmandlar faoliyat yuritib keladi. Loyni maydalash, bo'yoq tayyorlash, dorivor o'tlar va minerallar to'plash, hamda loy bilan ishlash san'ati va sirlarini ota-bobodan o'g'lga, undan esa nabiraga o'tkazish an'anasi mavjud. [6:2] Shu bois, bu yerda tayyorlangan idishlar ichki va chet elda katta badiiy qadrga ega. Zamonaviy ustalar qadimiy hunar an'alariga tayangan holda o'zlarining yangi g'oyalarini ham qo'shadilar. Hozirgi kunda Rishtondagi deyarli har bir xonadonda loy bo'lagini nafis shakllarga aylantirish mo'jizasi sodir bo'ladigan ustaxona mavjud. Ular orasida mashhur kulol ustasi Ibrohim Komilovning uy-muzeyi, Rustam Usmonov yaratgan uy-galereya hamda Alisher Nazirovning ijodiy ustaxonasi bor. Rishton kulollari asosan mahalliy lo'nda tuproq va tabiiy bo'yoqlardan foydalanadilar. Bunday buyumlar nafaqat maishiy, balki san'at namunasi sifatida ham qadrlanadi. Andijon viloyatining Shahrixon tumanida qadimdan pichoq yasash san'ati rivojlangan. Mahalliy ustalar tomonidan yasalgan pichoqlar yuqori sifat, o'ziga xos naqsh va estetik ko'rinishi bilan ajralib turadi. Pichoqlarning tig'i po'latdan, dastasi esa yog'och, suyak yoki shoxdan tayyorlanib, bezak naqshlar bilan bezatiladi. Shahrixon pichoqlari ham butun dunyoda tanilgan va yuqori baholanadi. Shaharda pichoq yasash bo'yicha butun oilaviy sulolalar ishlaydi, ularni bu yerda "pichokchi" deb atashadi. Ko'plab ochiq ustaxonalar mehmonlarga pichoq yasash jarayonini bevosita kuzatish va o'ziga ma'qul buyumni tanlash imkonini beradi. Bu yerda tayyorlangan pichoqlar yurtning turli hududlariga yetkazilib, sifatli mahsulot sifatida savdoga chiqariladi. Shahrixon pichoqlari nafaqat maishiy ehtiyoj, balki sovg'alik sifatida ham keng foydalaniladi. Bu san'at turi ham ustoz-shogird an'anasi asosida rivojlanmoqda.

Farg'ona vodiysi musiqiy madaniyatining yorqin namunasi bu — Shashmaqom san'atidir. U Buxoro va Farg'ona-Toshkent maktablari shaklida rivojlangan. Farg'ona-Toshkent maqom maktabining asosiy o'ziga xos jihatlaridan biri bu — maqomlarning yumshoq, lirika bilan yo'g'rilgan, ohangdor va ko'proq his-tuyg'ularga urg'u bergan holda ijro etilishidir. Bu maktabda kuylar ko'pincha yakkaxon ijro etiladi, ya'ni hofizlar yolg'iz ovozda, shaxsiy hissiyotlarga boy tarzda kuylaydilar. Ashulalarda matnning poetic mazmuni va ohangning sezgirligi o'zaro uyg'unlashib, tinglovchiga ichki quvonch, g'am yoki orom baxsh etuvchi holat yaratadi. Shashmaqom — ko'p qismlik murakkab musiqiy asar bo'lib, u ashula, sozandalar va hofizlar ijrosida namoyon bo'ladi. Shashmaqom musiqasi 2003-yilda UNESCO tomonidan Insoniyatning

ogʻzaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi sifatida eʼtirof etilgan. Undan tashqari, dutor, gijjak, doira kabi milliy cholgʻu asboblari ijo etiladigan xalq kuy va qoʻshiqlari ham vodiyning boy musiqiy merosidir. Qoʻqon maktabi Oʻzbekiston kashtachilik anʼanalarida alohida oʻrin tutadi. Mahalliy kashtachilikda gullar, barglar, quyosh shakllari va boshqa ramziy naqshlar qoʻllaniladi. Kashtalar odatda ipak iplar bilan tikiladi. Mahsulotlar orasida doʻppilar, toʻnlar, soʻzanalar alohida oʻrin tutadi.

Madaniy meros — bu jamiyat tomonidan avloddan avlodga oʻtib kelayotgan va badiiy, tarixiy hamda ilmiy ahamiyatga ega moddiy va nomoddiy qadriyatlar majmuasidir. Bu meros — xalqning oʻziga xos madaniyatini, turmush tarzini, ijtimoiy hayotini, diniy qarashlarini va milliy urf-odatlarini ifodalovchi boy manba hisoblanadi. U nafaqat oʻtmish hayotini yoritadi, balki bugungi avlodning oʻzini anglashiga, kelajakka yoʻnaltirilgan rivojlanish strategiyalarini belgilashiga xizmat qiladi. Tarixiy-madaniy meros ijtimoiy birlik va milliy oʻzlikni shakllantirishda beqiyos rol oʻynaydi.

Fargʻona vodiysi oʻzining boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy shaharlar, arxeologik yodgorliklar, meʼmoriy majmualar va nomoddiy madaniy qadriyatlari bilan nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning eng muhim madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, vodiyning har bir viloyati — Fargʻona, Andijon va Namangan — oʻziga xos turizm resurslariga ega boʻlib, ularni toʻgʻri boshqarish va integratsiyalash orqali mintaqaning umumiy turizm salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Hududdagi moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari — Axsikent, Mingtepa, Quva, Munchoqtepa kabi qadimiy shahar qoldiqlari, shuningdek, Margʻilon ipakchilik maktabi, Rishton kulolchilik anʼanalari, Shashmaqom sanʼati singari nomoddiy boyliklar — turizmning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu meros elementlarini zamonaviy turizm infratuzilmasi, marketing strategiyalari va madaniy marifiy dasturlar bilan uygʻunlashtirish, ularning xalqaro darajadagi tan olinishi va iqtisodiy samaradorligini yanada oshiradi. Shu sababli, Fargʻona vodiysi madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va turizm jarayonlariga integratsiyalash boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu nafaqat tarixiy yodgorliklarning asrab-avaylanishini taʼminlaydi, balki mintaqa aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish, mahalliy hamjamiyatlarni turizm faoliyatiga jalb etish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Fargʻona vodiysi madaniy meros obyektlari milliy identitet va tarixiy xotiraning ajralmas qismi boʻlish bilan birga, ularni zamonaviy turizm tizimiga samarali kiritish hududning kelgusidagi turizm istiqboli va madaniy brend sifatida tanilishida muhim oʻrin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ахмедов Ж. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш (XIX–XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 22 б.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – 500 с.
3. Herbert, D. Heritage, Tourism and Society. – London: Mansell, 1995. – 220 p.
4. Otero, J. Heritage and Cultural Identity. – Madrid: UNESCO Publishing, 2008. – 180 p.
5. Usanova, U. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ‘ib etishda ijtimoiy-madaniy funksiyalarning ahamiyati. // Moddiy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlar: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 34.
6. Begmatov Khurshidbek Isanaliyevych. The Role of Rishtan Pottery in the Development of Central Asia Tourism. // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – Vol. 24. – September, 2023. – ISSN: 2795-7683.
7. Ashiraliyev, F. O‘zbek maqom maktablari: Xorazm, Farg‘ona-Toshkent va Buxoro an‘analari. // Modern Science and Research. – 2025. – 4(4). – Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/85205>
8. Tobirov O. Q. Farg‘ona vodiysi hududini geografik-turistik rayonlashtirish. // Journal of Advanced Research and Stability. – Volume: 03, Issue: 12. – December, 2023. – ISSN: 2181-2608. – P. 79–80. – [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz)